



# IJIRSET

International Journal of Innovative Research in  
**SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY**

e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710



# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 4, April 2022

**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA

**Impact Factor: 8.118**



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

# Challenges in the Training of Future Technological Education Teachers

Boltaboyev S.A.<sup>1</sup>, Samadova M.N.<sup>2</sup>

Associate Professor of "Technological Education" Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan<sup>1</sup>

2nd year student of "Technological Education" Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan<sup>2</sup>

**ABSTRACT:** This article describes the ongoing reforms in the field of education in the Republic of Uzbekistan and the current problems in the training of future teachers of technological education.

**KEYWORDS:** Reform, innovative technology, lesson, innovation, innovative process

## BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYORLASHDAGI MUAMMOLAR

Boltaboyev S.A.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>"Texnologik ta'lism" kafedrasi dotsenti  
Chirchiq davlat pedagogika instituti

Samadova M.N.<sup>2</sup>

<sup>2</sup>"Texnologik ta'lism" yo'nalishi 2- bosqich talabasi  
Chirchiq davlat pedagogika instituti

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va hozirgi vaqtgagi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Islohot, innovatsion texnologiyalar, dars, innovatsiya, innovatsion jarayon.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, shuningdek, "Kadr tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi asosida xozirgi zamon talablariga javob beruvchi uzluksiz ta'lum tizimini shakllantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratdi. Ta'lum soxasida olib borilayotgan aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustivor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Jamiyatda ruyobga chiqarilayotgan islohotlar talablarga to'liq javob beruvchi, yangi sharoitlarga qisqa muddatda moslasha oluvchi, mexnat bozorida mutaxassislar muloxozasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurutuvchi yetuk mutaxasisni shakllantirish dolzarb muammo bo'lib kelgan va dolzarbligicha qolmoqda.

Texnologig ta'lum yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni shuningdek, ushbu mutaxassislar quyligan talablar bu borada quydagi muammolarning mavjukligini ko'rsatadi:

- Maktablar raxbariyati tomonidan ushbu kasb o'qituvchilariga bo'lgan etibori yetarli darajada emasligi;
- Pedagogika oliy ta'lum muassasalarida ham ustaxonalar talab darajasida jixozlanmaganligi metallarga mexanikaviy kesib ishslash ustaxonalarida metall kesish stanoklari va kesuvchi asboblarni yetarli darajada emasligi va hakozolar
- Maktablarda maxsulot tayyorlash uchun materiallarr (zagatovkalar) mavjud emasligi;
- Dars mobaynida deyarli innovatsion texnologiyalardan foydalananlayotganli va hakazolar.
- Oliy pelagogik ta'lum tizimida Texnologik ta'lum yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayerlash o'quv rejalarida fanlarni bloklar aro joylashuvi ijtimoiy jamiyatda pedagogik ta'lum asosiy maqsadlariga muvofiq emasligi kasbiy ko'nikmalarini egallashda imkon beruvchi omillar yetarlicha amalga oshirmaganligi;
- Yuqorida qayd etilgan omillar va boshqa sabablarga ko'ra "Texnologik ta'lum" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash 3 yilga keltirildi.
- Umum muxandislik fanlarining texnologik jihatdan o'zaro yaqinlashuv mazmuni kasb etmoqda.
- Ushbu xolat ta'lum jarayoniga ta'lum shakllari metodlari va vositalarining yaxlit tashkil etuvchisi bo'limi talabiga javob bera oladigan kompyuter texnologiyasining jadal tatbiq etilishi uchun zarur ijtimoiy asoslarini yaratib yangi inavatsion va padagogik texnologiyalarini shakllanishiga asos bo'ldi.
- Bosqich gummanitar ijtimoiy – iqtisodiy fanlar hamda matematika va tabiiy ilmiy fanlar axborot- texnologiya ixtisoslik tanlov fanlari ishlab chiqarish amalyotidan olingan bolim va amaliy ko'nikmalar texnologik ta'lum metodikasi fanida olingan bilim va amaliy ko'nikmalar pedagogik amalyotida o'z tatbiqini topadi.

- Bo'lajak texnologik ta'lim o'quvchilarini auditoriyada olgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq etish va o'z shaxsiy va individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda pedagogik amaliyot qulay imkoniyat yaratadi.

Zamanoviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan xolda, o'qitishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb – hunarga o'rgatish, kerakli bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda buning negizida ularning jaxon sivilizatsiyasi yutuqlari, hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, usullarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalasi xisoblanadi.

Shu boisdan, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lган qiziqish, e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim maqsadlari o'quvchi yoshlarni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, xatto xulosalarni xam o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

**Innovatsion texnologiyalar** pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashyotgan xar bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va xamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, taddiqotchilik, tajriba – sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qiladi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruxlarga bo'lingan xolda ishlashadi. O'quv topshiriqlari aloxida bir o'quvchi emas, balki kichik guruxning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruxlarning xar bir a'zosi topshriqni bajarishda o'z xissasini qo'shishga xarakat qiladi. Bu xolat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakillantiradi va ularning tashabuskorligini orttiradi. **Ta'lim jarayonini tashkil etishining asosiy shakli darsdir.** Xozirgi paytda darsning xilma - xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirishi, aqliy saloxiyatini ko'chirishi, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi va xar bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llab o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratlari bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi zamonaviy ta'lim tizimi so'nggi yillarda shu soxada olib borilgan ulkan o'zgarishlarning samarasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim olish bugungi kunda jamiyat ijtimoiy xayotining bir qismi bo'libgina qolmay, balki uning rivojlanishidagi muhim omillardan biri xisoblanadi. Chunki kelajak avlodni tarbiyalashda ta'limning o'rni xal qiluvchi o'rnlardan biri ekanligi barchaga ma'lum.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimiga ko'plab ilg'or innovatsion texnologiyalar kirib keldi. Eng avvalo o'quvchilar passiv tinglovchi va ko'chirib oluvchi shaxslardan dars jarayonida faol ishtirot etuvchi shaxslarga aylantirildi. Bunda ularning o'z aqliy layoqatlari darajasini namoyon qilish imkoniyati ochib berildi. Avvalgi vaqtarda ta'limning vazifasi kishilarda bilimlarni, ko'nikmalarni, informatsion va ijtimoiy hususiyatlarni shakillantirish hamda shaxslarning jamiyatdagi sharoitlarga moslashishidan iborat bo'lgan "xayotga tayyorlash" dan iborat bo'lgan. Xozirgi paytda esa ta'lim shaxslarda jamiyat va shaxsiy manfaatlar orasidagi muvazanatni vujudga keltiruvchi ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqarishga, shaxslarning o'zlarini takomillashtirib borishi va xayotda o'z o'rnini topib, jamiyatda samarali maxnat qilish yo'llarini o'rgatishga yo'naltirilmoqda. Ko'pchilik ta'lim muosasalari o'z faoliyatiga yangi zamonaviy elementlarni joriy qilishni boshлади, biroq bunday o'zgarishlar tezda rivojlanishga bo'lgan talab va pedagoglarning bu talabni qondira olmasliklari natijasida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ta'lim mussasalarni rivojlanishirish uchun "yangi", "yangilik", "innovatsion", "innovatsion jarayon" kabi birinchi ko'rishda sodda, lekin aslida murakkab bo'lgan tushunchalarni o'zlashtirish zarur.

Avvallari innovatsion masalalar faqat iqtisodiy tomonlama ko'rib chiqilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan innovatsion loyixalarning sifatini baxolash lozimligi ma'lum bo'ldi. Innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muammolarni xal qilish ta'lim soxasidagi mavjud muammolarni taxsil qilishga bog'liq.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchini xamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo'lishinin ta'minlaydi.

O'quvchilarda texnologik ta'lim fanlarini o'rganishda mavzularning mazmun va mohiyatini imkon to'liqroq ochib berish muhimligini xisobga olgan xolda, darslarda o'ziga xos pedagogik mahorat, malaka va maxsus jihozlardan foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi. Bunda pedagogik mahorat va malaka bevosita pedagogning aqliy saloxiyatiga bog'liq bo'lsa, maxsus vositalar sifatida zamonaviy innovatsion texnologiyalar va boshqa texnologiyalardan

foydalanishning o‘rni katta xisoblanadi. Ishning maqsadi texnologik ta’limi fanlari o‘qitishda mavzularni innovatsion texnologiyalar asosida o‘tishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Texnologik talim yo‘nalishlariga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash va sifatini nazorat qilish Davlat ta’lim standartlarida aks ettirilgan majburiy talablarga mos ravishda olib borilishi shart.

#### **REFERENCES**

1. Ahmadaliyev S. Predmetlararo aloqadorlik xarakterli mustaqil ishlardan foydalanish imkoniyatlari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2001. – № 1. – 62-64 b.
2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. MonografiY. – T.: Fan, 2004. – 126 b.
3. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi yo‘nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati // J. Maktab va hayot. – 2004. – № 1. – B. 18-20.



SJIF Scientific Journal Impact Factor

Impact Factor: 8.118



# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

9940 572 462 6381 907 438 ijirset@gmail.com

[www.ijirset.com](http://www.ijirset.com)



Scan to save the contact details